

Nodira SAIDOVA,

Kamoliddin Behzod nomidagi, Milliy rassomlik va dizayn instituti tayanch doktoranti

E-mail: saidovan453@mail.com, ORCID: 0009-0003-8256-4183

O'zR FA San'atshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, PhD A. F. O'lmasov taqrizi asosida

MANUSCRIPT SOURCES OF THE TIMURID PERIOD: TRADITIONS OF CREATION AND HISTORICAL SIGNIFICANCE

Annotation

In the article, within the framework of the Resolution No. PQ-46 dated February 5, 2026, the traditions of the creation of manuscript sources of the Timurid period as well as their historical and cultural significance are scientifically analyzed. The activities of the participants of the book production process are highlighted, and some manuscripts from the fund of the Institute of Oriental Studies are studied from a codicological perspective. The results show that the art of book production in the Timurid period was highly developed and substantiate that these sources are of great importance in the scientific study as well as in the effective organization of conservation and restoration work.

Keywords: Timurid period, manuscript sources, book art, calligraphy, miniature, bookbinding, Samarkand paper, codicology, conservation, restoration.

РУКОПИСНЫЕ ИСТОЧНИКИ ЭПОХИ ТИМУРИДОВ: ТРАДИЦИИ СОЗДАНИЯ И ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация

В статье в рамках постановления № PQ-46 от 5 февраля 2026 года научно анализируются традиции создания рукописных источников эпохи Тимуридов, а также их историко-культурное значение. Освещается деятельность участников процесса книгописания, и некоторые рукописи из фонда Института востоковедения исследуются с кодикологической точки зрения. Результаты показывают, что искусство книгописания в эпоху Тимуридов было высоко развито, а также обосновывают, что данные источники имеют важное значение для их научного изучения и эффективной организации работ по консервации и реставрации.

Ключевые слова: эпоха Тимуридов, рукописные источники, искусство книгописания, каллиграфия, миниатюра, переплетное дело, самаркандская бумага, кодикология, консервация, реставрация.

TEMURIYLAR DAVRI QO'LYOZMA MANBALARI: YARATILISH AN'ANALARI VA TARIXIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada 2026-yil 5-fevraldagi PQ-46-son qarori[13] doirasida Temuriylar davri qo'lyozma manbalarining yaratilish an'analari hamda ularning tarixiy-madaniy ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi. Kitobat jarayoni ishtirokchilari faoliyati yoritilib, O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondidagi ayrim qo'lyozmalar kodikologik jihatdan tadqiq etiladi. Natijalar Temuriylar davrida kitobat san'atining yuksak darajada rivojlanganini ko'rsatadi hamda ushbu manbalarni ilmiy o'rganish, konservatsiya va restavratsiya ishlarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etishini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, qo'lyozma manbalar, kitobat san'ati, hattotlik, miniatyura, muqovasozlik, Samarqand qog'ozi, kodikologiya, konservatsiya, restavratsiya.

Kirish. Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda kitobat san'atining shakllanishi juda qadimdan madaniyat va taraqqiyot bosqichlari bilan bog'liq holda rivoj topgan. Hususan, O'rta asrlardagi kutubxonalar va ularda olib borilgan kitobat ishi rivoji tarixida Amir Temurning o'rni va xizmati alohida diqqatga sazavordir.

Ma'lumki, Temuriylar davrida, Amir Temir (1370-1405), Shoxruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek va Bo'ysunqur Mirzo

(1409 -1449), Sulton Husayn, Alisher Navoiy, va Kamoliddin Behzod (1449-1506) davrlarida nafis san'at o'zining barakali uch taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Temuriylar davrida ilmufan bilan bir qatorda tasviriy san'at, ilmiy va badiiy asarlarni husnixatga ko'chirish, ularni miniatyuralar bilan bezash, shuningdek, nafis kitobat san'ati yuksak rivoj topdi. XIV-XV asrlar Temuriylar davrida kitobat va miniatyura san'ati yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.



(1-rasim): O'zR Fa SHI fondidagi №3440 tartib raqamli "Zafarnoma qo'lyozmasi

Manbalar va adabiyotlar tahlili. Tarixiy manbalarda aks etishicha Temur katta bilimdon va yuksak ma'rifat sohibi bo'lgan, o'zi garchi madrasa kutubxonalar qurmagani bo'lsada, ilmu-ma'rifat ahliga homiylik qilgan. Bu borada mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida keltirilgan. Temuriylar davriga oid qimmatli manbalardan biri bo'lmish mazkur asar hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan "Zafarnoma" asari qo'lyozmasidir (1-rasm). Uning tartib raqami – №3440. O'lchami – 35x49,5 sm bo'lib, 239 varaqdan tashkil topgan. Matn suls xatida bitilgan bo'lib, har sahifasida



(2-rasm): O'zR Fa SHI fondidagi №3440 tartib raqamli "Zafarnoma qo'lyozmasi" ning 42-varaqdagi unvon bilan bezatilgan matn qismi

Temuriylar avlodi Shoxruh Mirzoning o'g'li va vaziri bo'lmish Boysunqur Mirzo ham nihoyatda noziktab, adabiyot va san'atning haqiqiy muxlisi, hunar ahlining haqiqiy jonkuyar homiysi edi. Zamondoshlari Boysunqur Mirzoni aqlu zakovatli hunarparvar kishi sifatida ta'rif etadilar. Alisher Navoiy u haqida shunday degan edi: "Boysunqur Mirzo xushtab va sahiy va hunarparvar kishi edi. Hattot, naqqosh, sozanda va go'yanda (halq badiiy so'z ijodkorlaridan biri) buncha benazir kishikim, aning tarbiyatidan oroga kirdi, ma'lum emaskim, hech podshox zamonida paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ulcha imkoni bor, olamni xushluq ila o'tkazdi" [2]. Mirzo Boysunqur tashabbusi va rahbarligida Hirotda ulkan kutubxonalar barpo etilgan. Kutubxonada qirq nafar yetuk hunarparvar, xushnafis hattotlar faoliyat yuritgan. Ular Mavlono Jafar Tabriziy raisligida kitobat san'ati bilan mashg'ul bo'lib, o'sha davr tarixnavislarining e'tirofiga ko'ra, o'z zamonasining nodir va ziyoli vakillari bo'lgan. Kitob tuzish bilan bog'liq bo'lgan jarayonda bu hunar vakillarining har birlari turli xil kitobatga lozim bo'lgan varroqlik, saxxoflik, tasvir, tazxib, tajdil, vassollik, zarafshonlik va boshqa nafis badiiy san'at ijodi bilan mashg'ul bo'lganlar.

1.Varroq – qo'lyozma uchun ishlatiladigan qog'ozni kotib, muallif yoki boshqa bir buyurtmachining iltimosi yoxud tavsiyasiga ko'ra ma'lum shakl va o'lchamda varaq holiga keltirib, qirqib va tayyorlab beruvchi hunarmand.

2.Hattot – matnni qog'ozga ko'chiruvchi, kitobat qilishni o'ziga doimiy kasb qilib olgan kishi.

3.Tasvir – kitob ko'chirilib, muqovalangach, chizilishi kerak bo'lgan sahifalarga surat chizish, suratlash.

4.Saxxof – kitob holiga keltirishda tayyor bo'lgan varroqlarni avval juz-juz qilib, so'ng juzlarni birlashtirib, yaxlit muqovaga oluvchi hunarmand muqavaso.

5.Tazxib - qo'lyozmalarni zarhallash, oltin suvi bilan bezagan hunarparvar. Qo'lyozma bezaklaridan ko'pincha zarvarraq, qo'shzarvarraq, unvon, lavha, naqsh, jadval, oltin suvi bilan yaltiratilgan. Ba'zi qo'lyozmalar sahifasining hoshiya qismiga oltin suvi sepib ziynatlangan. Bunday hoshiya tazxibiy hoshiya deb atalgan. Tazxibiy hoshiyalar – ingichka barglar va uzum shingilchalarini eslatuvchi naqshlar turli ko'rinishlarda chizilgan.

6.Vassol – qo'lyozmalarni ta'mir qiluvchi, uringan yerlarini qayta tiklovchi hunarmand. Bu ishni qo'lyozmaga

25 satr mavjud. Qo'lyozmaning qog'oz juda sifatli, oxorlangan Samarqand qog'ozidan tayyorlangan. Sarlavha va alohida ajratilgan so'zlar faqat 41, 42, 43 varaqalarda mavjud bo'lib, ular oltin suvda yozilgan (2-rasm). Ularning o'lchami – 29x42 sm bo'lib, 41-varaqda unvon naqshi bor. Asarning 40, 41 va 51 varaqalarda uchta miniatyuraning oq-qora chizmasi mavjud. Oxirgi chizmada lashkar oldida kelayotgan Amir Temur tasviri chizilgan bo'lib, yoniga "Hazrat Amir Temur" deb yozib qo'yilgan. Manbalarda bu noyob qo'lyozma XV asrning birinchi yarmida Hirotda yaratilgan deyiladi [1].

ishlatiladigan ashyolar, uni kitob holiga keltirishda qo'llaniladigan asbob uskunalar va kitobat jarayonlaridan to'la xabari bor bo'lgan hunarmand bajara oladi.

8.Zarafshon – kitobat san'atidagi badiiy bezaklardan biri. Qo'lyozma sahifalarini to'laligicha yoki faqat matn yozilgan jadval ichidagi asosiy qismini, sahifasining hoshiya qismini oltin yoki kumush suvi purkab bezatuvchi. Zarvaraq – qo'lyozma kitobining boshlanishida oltin suvi berilgan birinchi sahifasi, agar ikki sahifa yaxlit zarafshon qilinsa, qo'sh zarvaraq oltin suvi yuritilgan maxsus qog'oz deb ataladi.

Kitobat san'ati yuqorida nomlari keltirib o'tilgan bir qancha qo'li gul hunarmandlar tomonidan bajariladigan murakkab jarayonlarni o'z ichiga olgan. Tarixchi Xondamir "Temuriylar avlodi Mirzo Boysunqur tarbiyasi va rioyati bilan xushnavis, musavvir, naqqosh, va jildsozlar yetishdi, ular katta izzat va hurmatda kitobat san'atining yuksak namunalari bo'lmish noyob qo'lyozma asarlarni yaratish yo'lida mashg'ul edilar", deb yozadi [4].

XIV – XV asrlar Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy hayotdagi barcha sohalar kabi mashhur Samarqand qog'oz ishlab chiqarilishi ko'lami ham yana eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Shu davrlarda san'at va madaniyatga bo'lgan e'tibor kuchaydi, ilm-fan va adabiyotga oid ko'plab ilmiy va tarixiy asarlar yozildi, ko'chirildi. Birgina Samarqand shahrida Mirzo Ulug'bek, Saroy Mulkxonim (Bibixonim), Muhammad sulton, Amir Shohmalik, Ruhobod, Marg'inoniy, Qutbiddin Sadr, Xo'ja Ahror, Amir Abuka, Alayka Ko'kaltosh, Amirzoda Abdulla, Ahmad Hojibek, Idigu Temur, Mirzo Abdulaziz, Feruzshoh, Mir Burunduq, Mir Tarxon, Abdurahmon Shohiy madrasalari [3] va kutubxonalari [3] bunyod etilishi va ushbu dargohlarda kitobat ishi bajarilganligi ham mazkur davrlarda qog'oz ishlab chiqarishning haqiqiy tarixini aniqlash va tasavvur etishga yordam beradi.

Bugungi kunga kelib, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida saqlanayotgan qadimiy asarlar orasida Temuriylar davri kutubxona va madrasalarida kitobat qilingan bir qancha noyob qo'lyozmalarni uchratishimiz mumkin. Mazkur qo'lyozmalar nafaqat o'z davrining ilmiy-ma'rifiy muhitini aks ettiradi, balki kitobat va muqovasoqlik san'atining yuksak darajada rivojlanganligidan ham dalolat beradi.




3-rasm: Mahmud ibn Qosim ibn Yusuf al-Husayniy. “Sharh az-Zinjoniyy”. 953/1546-1547 - yil ko‘chirilgan. O‘zR Fa SHI qo‘lyozmasi №8332/6..

Shunday manbalardan biri Saroy Mulkxonim kutubxonasiga tegishli bo‘lib, hozirgi kunda mazkur fondning №8332/6 [5] raqam ostida saqlanuvchi Mahmud ibn Qosim ibn Yusuf al-Husayniyning fors tilidagi, tilshunoslik ilmiga oid “Sharh az-Zinjoniyy” asaridir (3-rasim). Qo‘lyozmani kotib Abduquddus ibn Muhammad hijriy 953-yili (1546–1547) ko‘chirgan. Kitob o‘lchami 18x11,5 sm, 37 varaq (142b–155a, 159a–182b) bo‘lib, mahalliy sharq qog‘oziga bitilgan. Asarning 155-159 sahifalari oralig‘i nuqsonli bo‘lib, matn yo‘qolgan.

Qo‘lyozmaning muqovasi malla rangli charm qoplanib ishlangan, o‘lchami 18,9x13 sm. Muqova o‘rtasiga yirik va uning tepa hamda pastiga kichik naqshli xos bezak bosilgan. O‘rtadagi asosiy yirik bezakning 5/3 qismi ko‘chib tushgan bo‘lsa-da, uning o‘rnida mahorat bilan ishlangan naqsh izlari saqlanib qolgan. Yuqoridagi kichik naqshning ham yarmi sinib, yo‘qolgan. Old va ortki muqova qismlarini birlashtiruvchi

o‘rtaliq belbog‘ning yuqori va pastiga och malla va ko‘k rangli ipak ipdan sheroza tikilgan. Muqovaning ichki yuza qismiga navvot rangli qog‘oz yopishtirilgan. Muqova butun saqlangan bo‘lsa-da, u ko‘p foydalanish oqibatida ishqalanish ta‘sirida, qo‘l muntazam tekkan o‘rinlarining rangi uchgan.

Temuriylar davrida kitobat ishlari faqat saroy kutubxonalari bilan cheklanib qolmay, yirik ta‘lim muassasalari - madrasalarda ham keng rivojlangan. Ayniqsa, Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasi bu borada muhim ilmiy va madaniy markazlardan biri hisoblangan. Samarqand Registoniga asos bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek madrasasi shon-shuhrati hanuz dunyo olimlari suhbatlarini to‘ldirib turibdi. Uning eng katta kutubxonasi shu madrasada edi. O‘zR FA SHI Qo‘lyozma manbalari orasida mazkur oliy o‘quv yurtida ko‘chirilgan va o‘qitilgan bir qator kitoblar aniqlangan.



4-rasm. Muhammad ibn Sa‘d at-Taftazoniy. “Sharh faroiz us-Sijavandiy”. 982/1574-1575-yil ko‘chirilgan. O‘zR Fa SHI qo‘lyozmasi №8875/3.

Shulardan biri №8875/3 [6] raqamdagi asar bo‘lib, u Ahmad ibn Yahyo ibn Muhammad ibn Sa‘d at-Taftazoniyning “Sharh faroiz us-Sijavandiy” asaridir (4-rasm). Asar meros masalasiga oid arab tilida yozilgan bo‘lib, kotib Ibrohim Muhammad ibn mavlona Muhammad al-G‘ijduvoni tomonidan hijriy 982-yili ramazon oyida (1574-yil 15-dekabr – 1575-yil 13-yanvar) ko‘chirilgan. Qo‘lyozma 67 varaqdan (149b–216a) iborat.

Muqova qattiq jild qog‘ozidan ishlangan bo‘lib, o‘lchami 20x13,3 sm. U yashil (mosh) rangda, o‘rtasiga yirik va uning tepa hamda pastiga kichik naqshli an‘anaviy xos bezak

bosilgan. Muqova yuzasi bir necha qator to‘g‘ri chiziqlar bilan hoshiyalangan, ularning oralig‘ida S shaklidagi zanjirsimon bezak tushirilgan. Muqova qirralari qirmizi rangdagi yupqa charm bilan qoplangan. Jildlarining ichki tarafiga navvot rangli qog‘oz yopishtirilgan. Kichik g‘unchasimon bezaklarda muqovachi ismi qayd etilgan. Yozuv o‘tgan uzoq vaqt ta‘sirida dag‘allashib va xiralashib qolgani sababli undagi bitikni hozircha “Amali Xoja Ollohyor sah Hof” deb o‘qidik. Muqova belbog‘i zamonaviy usulda ta‘mirlangan va asli qoramtir ko‘k rangli maxsus matoga almashtirilgan.



5-rasm: Ahmad ibn Yahyo ibn Muhammad ibn Sa‘d at-Taftazoniy. “Sharh aqoid an-Nasafiy”. 768/1367-yili yozilgan. O‘zRFaSHI qo‘lyozmasi №9022/1.

Mirzo Ulug‘bek madrasasida ko‘chirilgan raqam ostida saqlanadi (5-rasm). U Ahmad ibn Yahyo ibn Muhammad ibn Sa‘d at-Taftazoniyning “Sharh aqoid an-

Nasafiy" nomli kalom ilmiga oid arab tilidagi asaridir. Asar hijriy 768-yili (1367) yozilgan bo'lib, kotib Muhammad Siddiq ibn mavlono... tomonidan hijriy 995-yili (1587) Mirzo Ulug'bek madrasasida ko'chirilgan. Qog'oz o'lchami 18,5x12 sm bo'lib, 71 varaqdan (1b-716a) iborat.

Muqova qattiq jild qog'ozidan ishlangan, o'lchami 19,4x13 sm. U malla (jigar) rangli bo'lib, o'rtasiga yirik va uning tepa hamda pastiga kichik naqshli an'anaviy xos bezak bosilgan. Ularning birortasida muqovachi ismi ko'rsatilmagan. Bezaklar qoplamasi ko'chib tushgan. Jild qirralari atrofiga yupqa va ensiz muqova qog'ozini yopishtirilgan. Ularning bir qismida S shaklidagi mayda yaproqsimon bezaklar saqlanib qolgan.

Muqova jildlarining ichki tarafi ko'k rangga bo'yalgan qog'oz bilan qoplangan. Muqova belbog'i jigar rangli charmdan ishlangan bo'lib, uning tepa va pastiga ipakdan tayyorlangan ko'k va qizil ip bilan sherozi tikilgan. Jild qirralari qizil rangli charm bilan qoplangan. Hozirda muqova belbog'i yirtilgan, kitobning matn yozilgan varaqli qismidan ajrab ketish xavfida turibdi. Shu sababli u ta'mirlalab holga kelib qolgan.

Qo'lyozmalar xazinasida saqlanayotgan manbalar orasida keyingi davrlarga oid tarixiy asarlar ham mavjud. Shulardan biri O'zR FA SHI №2193/24 [8] raqam ostida saqlanayotgan Sharifjon maxdum Sadri Ziyoning tarixga oid fors tilidagi "Tarixi osori atiq va binohoi qadima Buxoroi sharif" asaridir. Mazkur asarni muallif o'z dastxati bilan nasta'liq xatida yozgan. Qog'oz o'lchami 20,5x17 sm bo'lib, 4 varaqdan (243a-246a) iborat.

Muqova charm qoplanib ishlangan, o'lchami 21,5x17,5 sm. U qirmizi rangli bo'lib, o'rtasiga yirik va uning tepa hamda pastiga kichik naqshli an'anaviy xos bezak bosilgan. Kichik bezaklardagi bitiklarda "Al-muzannib Ibodulloh, 1311" yozuvlari bor. Bu satrlar Ibodulloh sahhof hijriy 1311-yili (1893) ushbu muqovani tayyorlaganini anglatadi. Muqova jildlarining ichki tarafi moviy rangli qog'oz bilan qoplangan. Muqova belbog'i zamonaviy uslubda ta'mirlangan va asli o'rmiga qora rangli maxsus mato qo'yilgan. Qo'lyozmaning hozirgi saqlanish holati yaxshi.

Abdusattor Jumanazar ushbu kitob haqida: "Qo'lyozmalar xazinasida mazkur raqamda saqlanayotgan jildda Sadri Ziyoning yana bir qancha asarlari to'plangan. Ushbu asar ehtimol, Mirzo Ulug'bekning Samarqanddagi madrasasida yozilgan so'nggi asardir", deb mulohaza bildiradi [3:100-133].

Amir Temur va temuriylar davri (Movarounnahr 1370-1501, Xuroson 1507-yilgacha, Qobul 1530-yilgacha) Sharq kitobati va miniatyura san'ati tarixida alohida o'rin

tutganligidan [9], hozirgi kunga kelib ham uning noyob namunalari dunyoning barcha yirik muzey, kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda [10]. Hususan M.Rahmonqulova tadqiqotlarida ham Shohrux Mirzo kutubxonasiga tegishli 17 ta qo'lyozma asar ro'yxati keltirilgan va hozir ular Istanbul, Sankt-Peterburg, London, Parij, Vena shaharlari kutubxonalarida saqlanishini ta'kidlangan [11]. Xuddi shunday tarzda Temuriy Boysung'ur Mirzo homiyligida yozilgan va ko'chirilgan 21 jild qo'lyozma asar va ular Berlin, Sankt-Peterburg, Dublin, Florensiya, Vena, Istanbul, Tehron, London, Oksford kutubxonalarida saqlanayotgani haqida foydali ma'lumotlar berilgan [11].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida ko'rib chiqilgan manbalar shuni ko'rsatadiki, Temuriylar davrida qo'lyozma kitoblarni yaratishda varroq, hattot, musavvir, muzahhib, sahhof va vassol kabi turli soha mutaxassisleri ishtirok etgan. Bu esa kitobat jarayonining faqat matn ko'chirish bilan cheklanmaganini, balki u badiiy bezak, miniatyura, muqovasozlik va dekorativ san'at elementlari bilan uyg'un holda amalga oshirilganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Samarqand qog'ozini kabi sifatli materiallardan foydalanilishi, muqova bezaklarida charm, ipak, oltin va kumush suvi kabi moddiy elementlarning qo'llanilishi qo'lyozma kitoblarning mustahkamligi va badiiy qimmatini yanada oshirgan. Bu holat Temuriylar davrida kitob yaratish madaniyati nafaqat ilmiy-ma'rifiy, balki estetik jihatdan ham yuksak darajada rivojlanganini ko'rsatadi.

Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan - №3440, №8332/6, №8875/3, №9022/1 va №2193/24 raqamli qo'lyozmalarining kodikologik tahlili mazkur davrlarda qo'lyozma kitoblarning yuqori sifatda tayyorlanganini, kitob bezak va muqovasozlik san'atida mukammal uslubiy an'analar shakllanganini tasdiqlaydi. Ayrim manbalarning ta'mirlalab holatda bo'lishiga qaramay, ularning bugungi kungacha saqlanib kelishi o'sha davrda qo'lyozma kitoblarni tayyorlashda mustahkam texnologiyalar va yuqori darajadagi hunarmandchilik an'analari qo'llanganini ko'rsatadi.

Xulosa. Ushbu manbalarni kodikologik va tarixiy jihatdan o'rganish nafaqat kitob madaniyati taraqqiyotini yoritishga, balki ularning moddiy tuzilishi va yaratilish an'analarni aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, bu kabi manbalarni tadqiq etish konservatsiya va restavratsiya amaliyotlarida qadimiy texnologiya va an'analarni hisobga olgan holda qo'lyozmalarni ta'mirlash va saqlash ishlarini samarali tashkil etishga muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Pugachenkova G.A. Arxitektura i syujet na miniatyure iz "Zafar-name" veka. // TD Mejdunarodnogo simpoziuma po iskusstvu vostochnyx kovrov. - Baku, 1983.
2. Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. - Toshkent, 1966. - XII tom.
3. Abdusattor Jumanazar. Samarqand ta'lim tizimi va madrasalari tarixi. - T.: Akademnashr, 2021.
4. Xondamir. Xabibus-siyar. - Texron, 1270. 2- jild, 622 - saxifa.
5. Mahmud ibn Qosim ibn Yusuf al-Husayniy. "Sharh az-Zinjoniyy". 953/1546-1547 - yil ko'chirilgan. O'zR Fa SHI qo'lyozmasi №8332/6.
6. Muhammad ibn Sa'd at-Taftazoniy. "Sharh faroiz us-Sijavandiyy". 982/1574-1575-yil ko'chirilgan. O'zR Fa SHI qo'lyozmasi №8875/3.
7. Ahmad ibn Yahyo ibn Muhammad ibn Sa'd at-Taftazoniy. "Sharh aqoid an-Nasafiy". 768/1367-yili yozilgan. O'zR Fa SHI qo'lyozmasi №9022/1.
8. Sharifjon maxdum Sadri Ziyo. "Tarixi osori atiq va binohoi qadima Buxoroi sharif". O'zR Fa SHI qo'lyozmasi №2193/24.
9. Amir Temur jahon tarixida. - Toshkent: "Sharq", 2006; Istoriya Uzbekistana. Epoxa Amira Temura i timuridov // Otv. red. E.V. Rtveladze, D.A. Alimova. - Tashkent: "Fan", 2017. - S. 536.
10. O'zbekiston madaniy merosi turkumidan // Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalari instituti to'plami (Sankt-Peterburg, Rossiya). Ilmiy muharrir E.V. Rtveladze. - Toshkent: "Uzbekistan Today", 2017. - B. 448 (o'zbek, rus va ingliz tillarida).
11. Rahmonqulova M.B. O'rta Osiyoda muqovasozlik tarixi (XV-XIX asrlar). - Toshkent: "Tafakkur", 2015.B.140.
12. Norqulov N, Nizomiddinov I. Miniatyura tarixidan lavhalar. - Toshkent: "G'afur g'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti": 1970.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.02.2026 yildagi "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohbiqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to'g'risida" gi PQ-46-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-8036449>